

MAXTUMQULI ASARLARIDA DIDAKTIKA

Aliyeva Dilshoda

TerDPI O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi

Mirzayeva Norayxon

TerDPI O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada milliy uyg'onish davri adabiyoti vakili, turkman xalqining shoiri, mutafakkiri Maxtumqulining didaktik asarlari, hayotga tatbiq etilishi va uning adabiyotdagi ahamiyati haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Аннотация: В этой статье представлены сведения о дидактических произведениях представителя литературы периода национального возрождения, поэта и мыслителя туркменского народа Махтумкули, их применении в жизни и значении в литературе.

Annotation: This article provides information about the didactic works of Makhtumkuli, a representative of the national awakening period literature, a poet and thinker of the Turkmen people, their application in life, and their significance in literature.

Kalit so'zlar: Otasi Ozodiy, Maxtumquli hayoti, Farog'iy taxlallusi, didaktik asarlari, tasavvufiy she'rlari, yaxshilik va yomonlik, ma'naviy merosi.

Ключевые слова: отец Озодий, жизнь Махтумкули, толкование Фарогия, дидактические произведения, суфийская поэзия, добро и зло, духовное наследие.

Keywords: Father Ozodiy, Maxtumquli's life, Farog'i's analysis, didactic works, mystical poems, good and evil, spiritual heritage.

Maxtumquli (turkmancha: Magtymguly Pyragy; forsha: مخدومقلى فراغى, Maxtumquli Faro'giy); 1724-yil, Gurgan daryosi sohilidagi Hoji-govshan qishlog'i – 1807-yil) – turkman shoiri va mutafakkiri.

Uning hayoti va ijodi turkman adabiyotining asosiy ustunlaridan biri hisoblanadi. Uning haqiqiy ismi Maxtumquli Farog'iy bo'lib, u Etrek daryosi bo'yida, G'orav (hozirgi Turkmaniston va Eron chegarasi yaqinida) dunyoga kelgan. Otasi

Azadi o'z davrining bilimli kishisi bo'lib, Maxtumqulining tarbiyasi va ma'naviy shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatgan. Maxtumquli dastlab otasidan ta'lim olgan.

Keyinchalik, Xiva, Buxoro va Eronning mashhur madrasalarida ta'lim olib, arab, fors tillarini chuqur o'rgangan.

U diniy ilmlar bilan birga falsafa, tasavvuf, adabiyot va tarixni ham o'rgangan. Maxtumquli taxminan 1790-yillarda vafot etgan. Uning qabri Etrek vohasidagi G'oravga yaqin joyda joylashgan, ziyoratgoh sifatida e'zozlanadi.

Maxtumquli Firog'iy tasavvufiy asarlari bilan bir qatorda didaktik mavzu ham uning poeziyasida alohida o'rinda turadi. Uning she'rlarida axloq va odob masalalari va boshqalar o'sha davrning katta muammolariga aylanib ulgurgan edi. Shu sababli ham katta ahamiyatga ega hisoblangan.

Quyidagi satrlarga e'tibor qarataylik:

Har ahmoqqa aytma dard-u so'zingni,

Hasrat o'ti jisming yoqqancha bo'lmas.

G'ussa bilan dona-dona ko'zingdan

Achchiq yoshlaringni to'kkancha bo'lmas.

Yuqorida shoir odamga o'z dardini har kimga ham aytaverish kerak emasligini uqtiradi. Har kim dardingni tushunavermaydi. Dilingdagi hasrat, ko'z yoshingning asl achchiqligini faqat chin dardni his qilgangina biladi. Shu bois, shoir chuqur dardni har kimga aytaverish to'g'ri emasligini uqtiradi.

Maxtumquli o'zining yana bir didaktik she'ri "Bo'larsan"dan olingan misralarga e'tibor qarataylik:

Yaxshilar yoninda yurgil sen o'zing,

Dur bo'lsin doimo so'zlagan so'zing,

Olimlarni uqsang, ochilar ko'zing,

Johilni tinglasang, ko'rdek bo'larsan.

Yuqoridagi misralarni " Yaxshi bilan yursang, yetarsan murodga, Yomon bilan yursang, qolarsan uyatga" maqoliga qiyoslashimiz mumkin. Haqiqatan ham kishi kim bilan ko'p yursa, o'shanga o'xshab qolishi tabiiy.

Maxtumquli tasavvuf ta'sirida ruhlangan shoirlardan bo'lib, uning didaktik she'rlari ruhiy kamolot, nafsni tiyish, ahli dil bo'lish kabi tushunchalarga asoslanadi. U dunyo ishlarining foniyligini anglash, qalbni poklashga urg'u beradi:

Kimki dunyoga bog'lanar,
Uning ruhida yo'q huzur.

Xulosa

Maxtumquli Farog'iy she'rlari didaktik g'oyalarga boy bo'lib, uning har bir asari xalqni tarbiyalash, unga yo'l ko'rsatish vazifasini bajaradi. Shoirning tarbiyaviy qarashlari bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Uning asarlari yosh avlodni ma'naviy barkamollikka yetaklovchi bebaho ma'naviy merosdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azadi, M. "Türkmen edebiyatinda Mahtumkulu". – Ashgabat, 1996.
2. Allakuliyev, G. "Maxtumquli poetikasi". – Toshkent: Fan, 1984.
3. Karimov, E. "O'zbek va turkman adabiyotida didaktik yo'nalish". – Toshkent, 2007.
4. Paradaev, O. "Turkman adabiyotining ildizlari". – Buxoro, 2014.
5. Maxtumquli. "Go'zal she'rlar to'plami". – Ashgabat: Ma'rifat, 1980.